

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

Buxoro davlat universiteti

O.X. Xamidov

2023 yil



**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLISH BO'YICHA
60230101 - FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: INGLIZ TILI
TA'LIM YO'NALISHIGA KIRISH SINOV LARI DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

Dastur Buxoro davlat universitetining 2023 yil 4 iyuldagi 11-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

Tuzuvchilar: **Rasulov Z.I.** – ingliz tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.d., dotsent

Djumayeva N.D. – ingliz tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.d.

Taqrizchilar: **Qobilova N.S.** – Ingliz tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.d.

Qobilova A.B. – Ingliz tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.d.

KIRISH

Dasturning **maqsadi** – ikkinchi oliy ta’limga o‘qishga talabgorlarning kasbiy yo‘nalish doirasida tilning og‘zaki va yozma shakllarini o‘rgatish, ularning ijtimoiy-madaniy muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o‘rganilayotgan chet tilining funktsional shakllari va uslublarini, til to‘g‘risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo‘llay olish layoqatini aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan suhbat va uning mazmuni bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning **vazifasi** – ikkinchi oliy ta’limga o‘qishga talabgorlarning умумэътироф этилган халқаро меъёрларга кўра талабаларнинг ўрганилаётган чет тилини С1 даражада эгаллашлари учун зарурий билимлар bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur suhbat sinovlari dasturi talabgorlarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan savollarni o‘z ichiga oladi:

- o‘rganilayotgan asosiy chet tilini Umumevropa standartlariga ko‘ra S1 darajada o‘zlashtirishi;
- o‘rganilayotgan chet tilining fonetik va grammatik qonuniyatlarini bilish va qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallashlari;
- o‘rganilayotgan chet tilida og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini egallashi;
- tushunish va muhokama qilish uchun bosqichma-bosqich turli til materiallari bilan ishlash usullari

1. UMUMIY TALABLAR

Ilmiy-tadqiqotchilik va pedagogik kompetentlik:

- o‘z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs modullari va ularning mavzularidan kelib chiqqan holda mantiqiy bayon etishi;
- chet tilidagi og‘zaki va yozma shakldagi ma‘lumotlarni tushunish maqsadida turli strategiyalarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- chet tilining fonetik va grammatik strukturalariga oid bazaviy va kommunikativ jarayonda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklari va qonuniyatlarini bilishi va ularni nutq jarayonida qo‘llay olishi;
- chet tilida chop etilgan turli matbuot materiallari va axborot beruvchi boshqa vositalardan olingan autentik til materiallarini tushuna olish va ularni tahlil qilish;
- o‘rganilayotgan chet tilida o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish.

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar:

- milliy mustaqillik mafkurasi asoslari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash, ingliz xalqining boy ma’naviy, moddiy merosi, axloqiy kamolot, ahloqiy tamoyillar, vatanparvarlik va

fuqarolik ongi, umumiy madaniyat, ijtimoiy faollik, olim psixologiyasi va etikasi va boshqalar.

Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishning huquqiy-me'yoriy asoslari:

- O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi siyosatining asoslari, ularni amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va yo'llari, shuningdek, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni rag'batlantiruvchi iqtisodiy va boshqa choralar tizimi, fan va texnologiya taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari;
- innovatsiyalarga bo'lgan talablarni oshirishning, fundamental fanning ildamlovchi taraqqiyotini ta'minlashning, eng muhim amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari;
- fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni bevosita va bilvosita rag'batlantirish choralari, bozor mexanizmlarini davlat tomonidan tartibga solinishi bilan oqilona uyg'unlashtirish, oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatni takomillashtirish;
- oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi.

2. ILMIY-TADQIQOTCHI SIFATIDA KOMPETENTLIK

Umumiy tayyorgarlik

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili sohasining ilmiy asoslarini, ilmiy va ilmiy-texnika sohasidagi metodologik asoslarini chuqur bilish, ilmiy va davriy nashrlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. Fan sohasining Respublika va dunyo miqyosida rivojlanish tendensiyalarini, taraqqiyoti yo'nalishlarini bilish. Global fikrlash, mulohaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga tayyorgarlik

Fanning ilmiy asoslari mazmuni. Adabiyotlar. Ilmiy adabiyot turlari (monografiya, maqola, tezis, risola, referat va boshqalar) hamda ularning tuzilmalari (strukturasi).

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili sohasining soha bo'yicha ilmiy asoslar (nazariy va amaliy). Nazariy izlanishlar olib borish usullari. Modellashtirish. Parametrlarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlaridan foydalanish.

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili sohasining O'zbekiston Respublikasida va dunyoda rivojlanish tendensiyalari. Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili sohasining soha oldidagi ilmiy va texnik muammolari hamda vazifalarini anglash.

Ilmiy faoliyatning tashkiliy jihatlari

Magistr akademik darajasi uchun talabgorlarga qo'yiladigan talablar. Magistraturaga kirish tartibi.

Fan sohasi bo'yicha ilmiy asoslarni bilish. Ilmiy muammolar

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili sohasini rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlar.

Soha o'quv fanlarining ilmiy asoslari tarkibi.

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili sohasini rivojlanishi bilan bog'liq omillar.

Tanlagan mutaxassislik bo'yicha qo'yilgan ilmiy masala mohiyati, ilmiy maqsad va olinadigan natijalar mohiyati

3. PEDAGOGIK KOMPETENTLIK. Pedagogik-psixologik tayyorgarlik

Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakllari, o'qitish metodlari va vositalari. Talaba shaxsini o'rganishning psixodiagnostik metodlari.

Ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta'minlash.

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish.

Mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mahorati

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan didaktik talablar.

Mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish metodikasi.

O'qitishning zamonaviy usullaridan, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, multimediya ta'lim resurslaridan foydalanish.

Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish

Talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib topshirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati. Masofaviy va virtual ta'lim olish.

O'z-o'zini kasbiy rivojlantirish

Fanlar turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirish, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarning mazmun-mohiyati, rivojlanish tarixi.

4. MA'NAVY-AXLOQIY QADRIYATLAR

Istiqlol, islohotlar, ma'naviyat tushunchalari. Milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi.

Milliy mustaqillik mafkurasi asoslari.

Ilmiy etika (ilmiy halollik) tamoyillari. Ilmiy

baxs tushunchasi.

Yuksak ma'naviyatli shaxs. Ma'naviy barkamollik. Ma'naviy barkamol inson.

Mafkuraviy immunitet. Diniy aqidaparastlik. Ma'naviy tahdid. G'oyaviy tahdid.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilmiy-nazariy, ma'naviy- ma'rifiy, madaniy qadriyatlardan samarali foydalanish.

Ta'lim jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari

O'qitish jarayonida talabalar ongiga milliy g'oyani singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllari.

"Ma'naviyat" kunlarini o'tkazish, dolzarb mavzular bo'yicha talabalar bilan suhbatlar o'tkazish, shu jumladan «ZiyoNet» axborot-resurs portali materiallaridan foydalanish.

Og'zaki nutq amaliyoti

Matn va manba turlari:

- dialoglar, suhbatlar;
- telefon orqali muloqot;
- jamoat joylaridagi e'lonlar (masalan, temir yo'l vokzali, aeroportdagi e'lonlar);
- ko'rsatmalar, yo'riqnomalar (masalan, auditoriyadagi o'qituvchining ko'rsatmalari, ovqat tayirlash, velosipedni (texnika vositalarini) ta'mirlash singari oson ko'rsatmalar);
- tele va radio xabarlar, ob-havo ma'lumotlari;
- monologlar (masalan, prezentatsiyalar, nutqlar);
- tele va radio hujjatli fil'mlar;
- badiiy fil'mlar;
- qo'shiqlar
- audio kitoblar va h.k.

Strategiyalar va ko'nikmalar:

- matnni tinglab uning asosiy g'oyasini ang'lay olish;
- matnni tinglab, undagi muayyan ma'lumotni (masalan, sanalar, ismlar) farqlash;
- so'zlashuvchining kayfiyati, hissiyotlari va munosabatini aniqlay olish;
- turli kommunikativ nutq vaziyatlari (salomlashish, kechirim so'rash, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish va h.k.) ni to'g'ri o'zlashtirishi;
- o'ziga yoqqan va yoqmagan narsalar, jihatlar haqida fikrini bayon etishi;
- o'zi haqida shaxsiy ma'lumotlarni bera olishi;
- o'qish va kasbga oid mavzulardagi dialoglarda ishtirok etib, ma'lumot almashish;
- so'zlovchi nutqini tushunganligi yoki yaxshi ang'lay olmaganligini ifodalashi (masalan, so'zlovchidan gapini yana bir marta takrorlashni, izohlash, savol berish va h.);
- muloqotni davom ettira olish;
- interv`yu olish va savollarga javob qaytarish;
- tanish mavzularda muhokamalarda qatnashishi;
- navbat bilan muloqotga kirishishi, so'zlovchining nutqini bo'lmasligi yoki bo'lishga to'g'ri kelgan vaziyatlarda muloqotni davom ettirishi;
- muloqotni boshlash va tugallash strategiyalarini egallashi;
- jummalarni perifriza qilish va qaytadan ta'kidlashi; - og'zaki muloqotda tegishli milliy-madaniy me'yorlarni (masalan, iltimos va rahmat so'zlarining turli madaniyatlarda ishlatilishi, salomlashish odobi) bilishi va ularni to'g'ri qo'llashi;

- muloqot jarayonida tegishli imo-ishoralardan (masalan, diqqat bilan tinglayotganligini ko'rsatish uchun oldinga sal engashish, tushunayotganligini ifodalash uchun bosh irg'ashi)
- o'rinli foydalanishi;
- tegishli intonatsiya va urg'udan foydalanib hissiyotlarini ifoda eta olish;
- turli mavzularda davomiy dialogga kirishish;
- avvaldan tayyorlangan holda interv`yu olib borish, ma'lumotlarni tekshirish va tasdiqlash, qiziqarli javoblarga e'tibor qaratish;
- muhokamalarda tegishli izohlar, argumentlar va sharhlar bergan holda o'z fikrini bayon qilish va uni himoya qilish;
- o'z qiziqishlariga oid mavzularda batafsil hisobotlar;
- yangiliklar, interv`yu yoki hujjatli fil`mlardan parchalar mazmunini qisqacha bayon etish;
- rasmiy vaziyatlarda dolzarb mavzular bo'yicha o'z nuqtai nazarini ifoda etish;
- debatlarda asosiy ma'ruzachi sifatida ishtirok etish.

O'qish va yozish amaliyoti

O'qishni o'rganishdagi matn va manba turlari:

- taomnomalar, retseptlar;
 - jadvallar;
 - kichik hikoyalar;
 - goroskoplar;
 - shaxsiy xatlar;
 - kundaliklar;
 - informatsion bukletlar, broshyuralar (filmlar, ko'rgazma va hokazolar haqida), sayyohlik yo'riqnomalari;
 - yangiliklar bayoni;
 - tanish mavzularga oid qisqa gazeta maqolalari;
 - she'rlar;
 - internet matnlari (bloglar);
 - e'lonlar (grantlar, sayohat manzillari haqida);
 - qo'llanmalar/instruktsiyalar (texnik vositalar, asboblari uchun);
 - qomusiy maqolalar;
 - gazeta va jurnallardagi maqolalar (yangiliklar, ma'ruzalar, katta hajmdagi maqolalar, xalqaro ilmiy jurnallarda o'rganilayotgan chet tilida chop etilgan maqolalar);
 - tahlil bayon etilgan qisqa ma'lumotlar;
 - asarlardan keltirilgan parchalar;
 - internet matnlari (bloglar, vebsaytlar);
 - entsiklopedik maqolalar;
 - professional mavzulardagi turli sohalarga bag'ishlangan maqolalar;
 - ma'ruzalarda keltirib o'tilgan g'oyaga nisbatan bildirilgan fikrlar va muhokama qilingan hisobotlar
- Strategiyalar va ko'nikmalar:
- asosiy fikrlarni anglash\bilish uchun o'qish;
 - g'oyani bilish uchun o'qish;
 - maxsus ma'lumotni olish uchun o'qish;

- so'zlarning kontekstdagi ma'nosini topish;
- diqqat bilan o'qish;
- ko'z yugurtirib o'qish;
- tez o'qish;
- o'qish jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlash va ularni tuzatib borish;
- past ovozda yoki ovoz chiqarib o'qish;
- takroran o'qish;
- yuzaki o'qish;
- lug'atlarga tez -tez murojaat qilish.
- xulosa yasash, "qatorlar orasi" ma'noni anglash
- xulosa qilish va yozma bayon etish
- muallif fikrini yoqlash yoki inkor qilish va uni asoslash;
- tahlil qilish;
- sintez qilish;

Yozishni o'rganishda quyidagi tur matnlarni yaratish bo'yicha ko'nikmalar shakllantiriladi:

- tabriknomalar va taklifnomalar;
- shaxsiy ma'lumotnomalar, anketa savollari;
- sodda xatlar, eslatmalar, qaydlar;
- voqea-hodisa, odamlar va predmetlar tasviriga bag'ishlangan xatlar, matnlar;
- rasmiy va norasmiy xatlar;
- e-mail, internet forumlariga xatlar;
- norasmiy elektron xatlar
- turli maqsadlardagi xatlar;
- yozma tanqidiy, rad javobi (masalan, biznesdagi hamkoriga)
- rezyume va tarjimai hol;
- kichik hikoyalar;
- taom retseptlari;
- shaxsiy kundalik
- bayonnomalar (masalan, ijtimoiy tadqiqotlar, jamoa muammolari, ta'lim jarayoniga oid muammolar va b.)
- kitob yoki fil`mlarning qisqa taqrizi;
- hisobotlar (uchrashuv hisobotlari, tashrif hisobotlari);
- tadqiqot hisobotlari;
- yaxshi va yomon tomonlarini baholash va tahliliy hisobot;
- fikr bildiruvchi insho;
- "qarshi yoki qarshi emaslik fikrini bayon etuvchi" insho;
- bahs munozarali insho turi
- tanqidiy bayonlar;
- voqea-hodisalar sharhi;
- maqola sharhi.

Yozma nutqni rivojlantirishdagi grammatik tamoyillar:

- gap tuzish (gapda so'z tartibi);
- gapda ega va kesimning o'rni, moslashuvi;
- gap turlari (oddiy, qo'shma gaplar);
- bog'lovchilar va kirish so'zlari;
- so'z tanlash (rasmiy va norasmiy uslubdagi so'zlar va h.)
- punktuatsiya

Matbuot tili

Matbuot tili fanining asosiy mazmuni quyidagicha:

ommaviy axborot vositalari va ularning o'ziga xosligi;

- OAVda ishlatiladigan til uslublari;

- OAV tilining o'quvchiga ta'sir qila olish, uning e'tiborini tortish xususiyati;

- OAV turlari tasnifi;

- OAVning jamiyatda tutgan o'rni;

- ma'lumotlarning matbuot materialiga aylanishi;

- reklama va e'lonlar OAVning o'ziga xos janrlari sifatida;

- OAVda etika masalasi;

- Elektron OAV va ularning bugungi kundagi ahamiyati;

- Axborot vositalarida madaniyatlararo kommunikatsiya masalasi;

- yozma matbuot;

- yozma matbuotning diskursiv va lingvistik o'ziga xosliklari;

- matbuotda standart va ekspressiv til birliklarining aks etishi;

- turli janrdagi matbuot matnlarining tuzilish shakllari;

- maqolalardagi sarlavhalarning tahlili;

- asosiy o'rganilayotgan chet tilida chop etiladigan mashhur gazeta va jurnallar;

- maqola matnidagi ma'lumot turlariga qarab matn ichida uchraydigan leksik va stilistik uslublari va qisqartma so'zlar;

- mahalliy va xalqaro mavzularni yorituvchi matbuot tilining bir-biridan (leksik, grammatik va sintaktik jihatdan) farqlari;

- og'zaki axborot va ularning manbalari;

- yozma bo'lmagan OAV turlari, ularning auditoriyaga ta'sir qilish uslublari va yozma matbuotdan farqli jihatlari;

- televidenie muhim OAV turi sifatida;

- televideniya beriluvchi turli janrlarga oid ma'lumotlar (axborot beruvchi, axborot-tahliliy ko'rsatuvlar, tok-shou, hujjatli filmlar, reklama dasturlari) ning o'ziga xosliklari;

- OAVda siyosiy arboblarning chiqishlari va ularning nutqlarining tahlili;

- matbuot materiallarini taxlil qilish usullari;

- ma'lumotni uzatishda ma'lumotni qisqartirish hodisasi;

-matnlarda ishlatiladigan kommunikativ uslublar: takrorlar, sinonimiya, antonimik konstruktsiyalar va hak.;

- matnlarda muallif fikrining aks etishi;

- har bir muallifning o'ziga xos ifoda uslubi yaratuvchisi sifatida;

- OAV tilining omma fikrini shakllantirishdagi roli;

- OAV materiallarida metaforalarning qo'llanishi;

- verbal va audiovizual materiallarning o'zaro bog'liqligi;

Har bir modul bo'yicha amaliy mashg'ulotlar mul'timedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy grammatika

Amaliy grammatika moduli mazmuni quyida til qonuniyatlari va grammatik qoidalarini o'z ichiga oladi:

- o'rganilayotgan chet tilining grammatik tuzilishi.
- morfologiya va sintaksisning o'zaro aloqalari.
- grammatik kategoriyalar.
- so'zlarni tasnif qilish, so'z turkumlari.
- fe'llarning tuslanish guruhlari.
- aniq va majhul nisbatlar.
- mayl va zamon.
- sodda va qo'shma zamonlar.
- zamonlarning moslashuvi.
- fe'llarning birlik va ko'plik shakllarining ifodalanishi va ularning shaxslari. fe'lning shaxssiz shakllari: infinitiv, hozirgi zamon sifatdoshi, o'tgan zamon sifatdoshi, ravishdosh.
- shaxssiz qurilma.
- fe'lning sintaktik vazifasi.
- ot so'z turkumi va ularning turlari.
- otning grammatik kategoriyalari.
- ko'plik formaning yasalishi.
- otlarning ko'plik shaklini yasashda ulardagi orfografik va fonetik o'zgarishlar.
- artikl, olmosh va determinativlarning roli.
- artikl` va uning turlari.
- sifat so'z turkumi va uning turlari.
- sifatning grammatik kategoriyalari.
- sifatlarda rod va ko'plik shakllarining yasalishi.
- sifatning qiyosiy darajasi.
- sifatning gapdagi o'rni.
- sifatning sintaktik vazifalari.
- olmosh so'z turkumi va uning turlari.
- olmoshlarning fe'l oldida qo'llanish tartibi va ularning turlari.
- olmoshning gapdagi vazifasi.
- ravishning ma'nosiga va shakliga ko'ra tavsifi.
- ravishning sintaktik vazifasi.
- ko'makchilarning turlari va vazifasi.
- bog'lovchilar turlari va qo'llanish usullari
- asosiy sintaktik bo'laklar, so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap.
- so'z birikmasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch.–Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–Toshkent: O'zbekiston, 2016.

Asosiy adabiyotlar

1. David Bohlke, Dorothy E.Zemach (2013) Skillful 1. Reading and writing. Macmillan.
2. Louis Rogers and Jennifer Wilkin, Dorothy E. Zemach (2012) Skillful 1. Reading and writing. Macmillan.
3. Sam McCarter. (2010). Improve your reading skills. Cambridge.
4. Scarry, S. & Scarry J. The Writer's Workplace with Readings: Building College Writing Skills. Thomson Learning. Sixth Edition. 2010.
5. Evans, V. (1998). Successful Writing. Upper Intermediate. Express Publishing
6. Evans V. (2000). Successful Writing. Proficiency. Express Publishing
7. Dorothy E. Zemach. Lisa a. Rumisek. Academic writing from paragraph to essay. Macmillan. 2005.
8. Sandra Scarry. John Scarry. The Writer's workplace with Readings. Seventh Edition. Wadsworth. Cengage learning. 2010.
9. Alireza Memarzadeh. Maximizer Reading, Writing, Speaking. Memarzadeh Pub. 2016.
10. V.L.Kaushanskaya and others. A Grammar of the English language. Moscow.2008.
11. Malcolm Mann. Destination C1 and C2. Grammar and vocabulary. Macmillan. 2008.
12. English phonetics and phonology. Fourth edition. Peter Roach. Cambridge university press,2019.-231 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Anelli Williams (2011) Writing for IELTS. Harper Collins Publishers
2. Gabi Duigu (2001) Visuals. Writing about graphs, tables and diagrams, Academic English Press
3. IELTS – Write Right – retyped by : Hội các sĩ tử luyện thi IELTS
4. Jon Marks: (2007) IELTS Resource pack Delta Publishing
5. Теоретическая фонетика английского языка.А.В.Зырянова.-Челябинск:Изд-во

Юж.-Урал.гос.гуман.-пед.ун.та, 2016.

6. Ship or sheep? An intermediate pronunciation course. Third edition. Ann Baker. Cambridge University Press, 2006. Newspaper Articles to get Teenagers Talking. Upper-intermediate- Advanced. Peter Dainty. Scholastic, 2006
7. Fluent English. Barbara Rainsnider, Living Language 2005
8. English collocations in Use. Upper-intermediate. Fourth Edition. Michael McCarthy, Felicity O'Dell, Cambridge University Press, 2017
9. Improve your Skills Listening & Speaking skills for IELTS. Joanna Preshous. Macmillan, 2014

IKKINCHI VA UN DAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLI SH BO'YICHA KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini to'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
d) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmasa.	0-13

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.